

G`ADA AS-SAMMAN IJODIDA ARAB-ISROIL URUSHI MAVZUSINING BADIY IN`IKOSI

Inson ruhiyati va uning ichki olami, o`y fikrlari, qalbining tubida yashiringan qiynayotgan savollar, ichki xayolat olami G`ada as-Samman¹ning deyarli barcha asarlari bosh qahramoni boshidan o`tkazgan voqealar ko`lamida o`z ifodasini topadi. Ayniqsa adibaning hikoyalarida ayol qahramonlarning bosh qahramon etib tanlangani, ayol qalb tug`yonlarining turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlar kontekstida ochib berilishi kitobxonlarni o`ziga jalb etadi. Adibaning qalamiga mansub “O`tgan yozning yong`ini” ( حريق ذلك الصيف ) nomli hikoyasida ham mavzular ko`lami jihatidan vatanparvarlik, arab-isroil urushining insonlar hayotida qoldirgan fojeaviy oqibatlari o`tkir badiiy mahorat bilan ko`rsatib berilgan. Bu hikoya uning “Eski bandargohlar halokati” رحيل المرافئ القديمة hikoyalar to`plamidan joy olgan. Bu hikoya birinchi marta nashrdan chiqannida esa رفاق المقبرة “Qabristondagi do`stlar” deb nomlangan.

Adabiyotni mavzu belgilamaydi. Uni iste`dod, mahorat, badiiyat belgilaydi<sup>2</sup>. Bu hikoyaninig mavzusini ochib berishda yozuvchining iste`dodi, mahorati, badiiyati belgilab bergan. Yozuvchi mavzuni yoritishda psixologizmga katta urg`u bergan.

Arab –Isroil urushi, uning qoldirgan o`chamas izi har bir arabning qalbini tirnab o`tgan. Shu sabab G`ada as-Samman ham bu mavzuga alohida yondashib Isroil agressiyasi bilan bog`liq bo`lgan Arab xalqining milliy tragediyasini ushbu asari orqali ochib bergan. Hikoya bosh qahramoni Navfa ziyoli, o`qituvchi arab ayoli, u 1965- yil iyun oyidagi Isroilning Bayrut qishloqlarining biriga hujumidan so`ng o`z qishlog`ini tark etishga majbur bo`ladi. Isroil maktabga bomba tashlaganida, yong`in sodir bo`ladi. O`zi ishlaydigan maktabdagi bir shol bolani qutqarib olib chiqayotganida kuyish jarohatini oladi.

G`ada as-Samman ijodini o`rgangan G`oli Shukri uning yozuvchilik uslubi haqida shunday fikr bildirgan: “Adibaning har bir hikoyasida 2 xil olam: hozirgi zamon va o`tmish. Bu ikki xil dunyo qahramonlar ongida qalb xotirjamligini topish ilinjidagi azob beruvchi og`riqli o`ylari va yashab turgan muhiti bilan hamnafaslik doimo to`qnash keladi<sup>3</sup>. Bu hikoyada ham huddi shunday. Asar boshida oxirigacha Navfaning ichki monologi ustiga qurilgan. Asar ham uning tilidan hikoya qilinadi. Uni qiynayotgan hissiyotlar, og`riqli va azob beruvchi xotiralar Navfani tinch qo`ymaydi. Navfa tinimsiz qornida o`sha yozdan orttirgan kuyish jarohatining og`rig`ini his qiladi, lekin bu yara allaqachon bitgan bo`lishiga

¹G`ada as-Samman 1942-yili Damashqda tug`ilgan. 1960-yili Damashquniversiteti, filologiyafakultetini tamomlagan. Asarlari: “Seningko`zlaring – meningtaqdirim” (1962), “Bayrutdadengizyo`q” (1966), “Musofirlartuni” (1966), “Eskibandargohlarhalokati” (1973), Bayrut-75 (1975) vaboshqalar.

²NazarEshonqul. Mendanmengacha. B-176. . Akademnashr :T-2014

³G`oliShukri .G`ada as-Sammanqanotlarsiz. Bayrut , 1977. B-77

qaramay. Chunki bu urush, uning dahshatli oqibatlarini uning ruhiyatiga qattiq ta'sir etgan va bu og'riq uni muttassil bezovta qiladi.

و ها هو الألم الغريب الذي يتفجر كل الليلة في كل موضع من جسدي-يبدأ من راسي – ثم يسيل جداول من كل أعضائي ليصب نقطة محددة : في معدتي ... بالضبط، في تلك الرقعة حيث الجلد مشوه من اثر ذلك الحريق ... ذلك الحريق ... ذلك الحريق....⁴

Mana o'sha g'ayrioddiy og'riq har kecha tanamning hamma joyini qaqshatqich og'ritadi - boshimdan boshlanadi, so'ngra badanim bo'ylab tarqaydi go'yo irmoqlardan oqib ko'lga borib yog'ilgan suv kabi boshimdan pastga tarqaydi va ma'lum nuqtada to'planadi... ichimda Aniq shu joyda uning olovidan a'zoyi tanim kuymoqda ... o'sha o't... o'sha o'tO'sha o't kuydirmoqda

Adabiyotning azaliy mavzusi – inson. To'g'ri, u qahramon qilib olgan inson zamon bilan, uning muammolari bilan yuzma-yuz turgan shaxs. Adib insonni yuzida va qalbida balqib turgan zamon bilan yaxlit holda, zamon bilan munosabatga kirishgan holatda, davr bilan ma'naviy ruhiy tippa-tiklikda tasvirlasa ham, baribir, kundalik mavzularning izidan quvib yurishi shart emas. “Zamon qahramoni” degani bugungi mavzularga o'ralashib qolgan qahramonmas, balki millatning ayni davrdagi dardini, qiyofasini, fazilatlarini, og'riq va iztirobini, g'urur va iftixorini, sha'n va sharafini o'zida mujassam etgan qahramondir.⁵

Darhaqiqat, biz Navfani ham ana shunday qahramonlar sirasiga kiritsak bo'ladi, chunki, u millatdardini o'zdardi, qayg'usini o'z qayg'usi va uning taqdirini o'z taqdiri sifatida biladi. U kuyib-yonib, Vatanining og'ir ahvoliga, vatandoshlarining achchiq qismatiga achinib yashaydi. Unda Vatan tuyg'usi, millatparvarlik hissi hamma narsadan ustun turadi.

يوم سقطت الضفة الغربية، و عرفت اني لن أرى بعد اليوم اطلال ادرى و مدرستي و قبر امي التهبت النار في جرحي العتيق ... ظننت اني أصبت بحرق جديد ، كشفت الثياب عن صدرى و كان الجلد المنمذل يبدو من الخارج مطفا ... و ادركت ان النار لم تنطفئ قط منذ التهبت في المرة الاولى عام 1965

G'arbiy Iordan (Iordan daryosining g'arbiy qismi tarafi) qo'ldan ketgan kuni endi bugundan boshlab hovlimiz va maktabim vayronalarini ham, onam qabrini ham hech qachon ko'ra olmasligimni anglab yetgan edim.

Eski jarohatimda olov alangalandi... Yana yangi o't ichida qoldim. Ko'ksimdan kiyimlarimni olib tashladim, chandiqli badanim tashqaridan sovigan ko'rinse-da aslida birinchi bor 1965 yilda alanga olganidan beri hali ham o'chmagan edi.⁶

Hikoya to'laligicha bosh qahramonning yolg'izligi-yu, uning g'am-qayg'usiga cho'mgan va u his tuyg'ularini ichki monolog orqali bayon etadi. Navfa shahar ko'chalarini sargardon kezadi va odamlarni kuzatadi, arab xalqining o'ta ayanchli ahvoliga kuyinadi. U uchun mag'lubiyat bu o'lim bilan teng, shu sababli ham u quyidagicha o'z hislarini bayon etadi:

نحن الآلاف الذين نغطي الرصفة ، المهزومين، المقتولين دون ان نلاحظ ذلك ، الراكضين يبحثنا الشوارع رغم اننا متنا منذ عشرة أيام أو اكثر ... نحن الراكضين في المظاهرات بعد الهزيمة ، الملتصقين ببرانز ستوراتنا ، المستنفدين لكل ما في الصيدليات من أقراص مهدئة ، المتلاشين علي الأرصفة في ليل

⁴ غادة السمان. رحيل المرافئ القديمة. منشورات غادة السمان بيروت 1973. ص 61

⁵ Nazar Eshonqul. Mendan mengacha. B-175. . Akadem nashr :T-2014

⁶ غادة السمان. رحيل المرافئ القديمة. منشورات غادة السمان بيروت 1973. ص 81

الهزيمة الأزرق الحزين ، متنا قبل ذلك كله ، و هي رائحة العفونة تتفوح منا... كان الوطن صار مقبرة واحدة كبيرة من المحيط إلى الخليج⁷

Butun yo`lni qoplab olgan minglab yutqazgan mag`lublarmiz. O`zimizni ko`chaga otgan mag`lublarmiz, o`zi aslida o`lganimizga vaholangki 10 kun, balki undan ko`proq bo`lgandir....mag`lubiyatdan so`ng o`zimizni namoyishlarga otganmiz. Yutqazgan kecha yo`laklarni to`ldirganmiz, aslida bularning barchasidan oldin o`lib bo`lgandik. Mana bizdan chiqayotgan o`sha sassiq hid nimadan. Huddi butun arab diyori okeandan to ko`rfazgacha qabristonga aylanganga o`xshaydi...

Hikoyada qabriston obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki hikoya syujetining ko`pchilik qismi aynan shu yerda sodir bo`ladi. Bosh qahramon Navfa qabristondan xotirjamlik topadi, aynan o`sha yerda u tanidagi og`riqni unutib, sokinlik bag`rida orom topadi. Shu sabab, har tunda u yerga boradi .

الليل و انا أوم حول سور تلك المقبرة في حى الزيتون بيروت

(ذهب رفاق المقبرة تفرقوا في ارجاء هذا العالم الواسع ، و بقيت انا أرملة الفرح لا املك الا ان أجي كل ليلة اليها)

لا استطيع الدخول الآن فحارسها ما يقظا يجب ان انتظر ثلاث ساعات أخرى على الأقل يجب ان اذهب من هنا و لا أعود أبدا ، هذا جنون جنون) و لكن ها انا مسمر امام الباب الحديدي الأسود المقبرة ... لا احد يلحظها ... كلهم يمر بها راكضا كأنها ليست هناك ...

Tun...Bayrutdagi Zaytuna mintaqasida joylashgan o`sha qabriston devoir bo`ylab kezib yurimman. (Qabristondagi do`stlarning barchasi keng dunyo bo`ylab tarqalib ketishdi, yolg`izgina shodlik bevasi men qoldim. Har kecha shu yerga – qabristonga kelishdan boshqa hech narsa qila olmayapman. Hozir ichkariga kira olmayman. Qorovul uyg`oq... yana kamida uch soat kutishga to`g`ri keladi. (Bu yerdan ketishim kerak, qaytmasligim kerak, bu jinnilik....., bu jinnilik.) Mana yana qabristonning temir, qora darvozasi oldida qoqqan qoziqday turibman. Bunga hechkim e`tabor bergani yo`q. Hamma go`yo hech narsa yo`qdek yugurib o`tib ketishadi.⁸

Ha, Navfa hayotda ezilgan, boshidan ko`p sinovlarni o`tkazgani sababli bu chirkin dunyodan uzoqlashishni o`liklar dunyosiga o`tgisi keladi, shu sababli ham faqatgina qabristondan panoh topadi. Yana shu narsa yaqqol ko`zga tashlanadiki, Navfa odamlardan begonalashgan, u yolg`iz, o`z xayollariga ko`milib yashaydi. Shuning uchun ham u o`zini majoziy ma`noda shodlik bevasi deb ataydi. Uni rostan ham shodlik tark etib mana shu holatga tushib qolgan. Ha u rostan ham yolg`iz yuragini tub –tubidan unga birov oz tinchlik bermaydi. Faqatgina qabrda halovatni his etadi.

Bir tomondan olib qarasak Navfa jamiyatda o`z o`rniga, o`ziga yarasha mavqe, pozitsiyaga ega. Uni turli insonlar qurshab olgan tanish bilishlari, do`stlari ham bisyor. Lekin u insonlardan begonalashgan va u yolg`iz. Navfaning o`z dunyosi va o`z olami bor. Bu olamda u o`zligini topishga intiladi.

في بيتي الصغير تحولت وحشي إلى خوف من الظلمة كنت اشتاق سماع صوت انسان صديق..
و كنت اهرب من أصدقائي و الملم نفسي على أسرارى و أحزاني ... عامان عشتها فى بيروت عرفت
فيها عشرات من الأصدقاء فازدادت وحشي

ت 1973 ص68 غادة السمان بيروغادة السمان. رحيل المرافى القديمة. منشورات⁷

1973 ص غادة السمان بيروغادة السمان. رحيل المرافى القديمة. منشورات⁸63

Kichkinagina uyimda esa dahshatim zulmatdan cho`chiydigan qo`rqinchga aylanadi.... Bir do'st insonning ovozi sog`indim.

Do'stlarimdan qochaman, sir-asrorlarim, g'am-tashvishlarimdan o`zimni o`zim qiynayman. Bayrutda 2 yil yashab o`nlab do'stlar orttirdim-u, dahshatim ortdi xalos⁹.

U haqiqatgo'y inson, shu sabab hayotda haqiqat izlaydi, hayotning mazmunini, haqiqatni izlab toppish va unga yetishishda deb biladi. Taniqli adibimiz O'tkir Xoshimov aytganlaridek, "Haqiqat havoga o`xshaydi, rangini ko`rmaysiz, ovozi eshitmaysiz, hidini bilmaysiz... Ammo bir lahza havosiz qolsangiz, bo`g`ilib ketasiz"¹⁰. Ha, bu gapda jon bor, chunki haqiqatga erishish uchun insonlar butun umrini bag`ishlaydilar, faqat haqiqatgina insonga tirgak bo`ladi va yashashga umid beradi. Shu sababli ham haqiqatning qadrini biladilar, uning qiymatini har narsadan ustun qo`yadilar.

Badiiylik – asarning ruhi, "joni", borlig'i. Mana shu ruh, "jon" asardagi ijtimoiy munosabatlarni, xarakterlar to`qnashuvini, siyosiy qarashlarni, mafkuraviy-axloqiy holatlarni – umuman, asarning makoni, zamoniga oid ma'lumotlarni aks ettiradi.¹¹

Darhaqiqat, G`ada as-Sammanning bu hikoyasida ham badiiylik asarning ruhiyatiga shunday singdirilganki, ularni ayri tasavvur etib bo`lmaydi. Kitobxon Navfaning xatti-harakatlari va bo`layotgan voqelikka bo`lgan munosabatida qandaydir o`zgacha jihatlarni ilg`ay oladi. Qahramonga achinadi va u his etayotgan og`riqlarni beixtiyor o`zi ham boshdan o`tkazadi, unga hamdardlik tuyg`usini his etadi. Bu hikoyada grotesk yaqqol namoyon bo`ladi, shu bilan birga reallik va xayolot ajabtovur bir tarzda birikib ketadi, bir-birini to`ldiradi. Bu asarning badiiy-estetik quvvatini belgilab beruvchi mezon ham shunda namoyon bo`ladi. Chunki asar boshidan – oxirgacha ta'sirchanlik ruhida bitilgan. Bu realistic hikoya sirasiga kiradi, chunki unda makon, zamon, ma'lum bir muammo mavjud. Lekin shu bilan birga unda modernistic metod unsurlari ham kuzatiladi. Ong oqimi, ichki monolog, takror so`zlarhikoyaningta`sirkuchiniyanadaoshirishgaxizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

- 1.Nazar Eshonqul. Mendan mengacha. Akadem nashr :T-2014
- 2.O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T: 2015
- 3.Abdug`afur Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T: 2007
- 4.D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug`ati. Akadem nashr, –T: 2010
5. غادة السمان بيروغادة السمان. رحيل المرافئ القديمة. منشورات. 1973

⁹1973 ص غادة السمان بيروغادة السمان. رحيل المرافئ القديمة. منشورات68

¹⁰O'tkirHoshimov .Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T: - 2015 b-227

¹¹Abdug`afurRasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T: - 2007b-120